



MAKTAB O'QUVCHILARI TOMONIDAN SODIR QILINGAN JINOYATLARNING SABAB VA OMILLARI

Jo'rayev Qobiljon Olimjonovich

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
magistratura tinglovchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatchilikning ijtimoiy, iqtisodiy, oilaviy, ta'limiy omillar asosida shakllanish jarayoni kompleks tahlil qilingan. Oilaviy muhit, ota-ona nazoratining sustligi, ichki ziddiyatlar va tarbiyaviy bo'shliq maktab o'quvchilarining xulq-atvoriga eng kuchli ta'sir etuvchi omillar sifatida baholangan. Shuningdek, maktab muhitidagi pedagogik muloqot sifati, ta'lim-tarbiyaviy jarayonning nomukammalligi kabi omillar yoritib o'tilgan. Maqolada iqtisodiy tengsizlik, mahalla nazoratining pasayishi, salbiy tengdoshlar guruhi ta'siri va raqamli makonning salbiy ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktab o'quvchilari jinoyatchiligining kelib chiqishi ko'p omilli bo'lib, uni samarali oldini olish oila–mahalla–maktab o'rtasidagi tizimli hamkorlik va ijtimoiy xavf omillarini barvaqt aniqlash orqali amalga oshirilishi mumkinligi asoslab beriladi.

Аннотация: В представленной статье осуществлён комплексный анализ процессов формирования преступного поведения среди учащихся общеобразовательных учреждений с учётом совокупности социальных, экономических, семейных и педагогических детерминант. Установлено, что семейная микросреда, недостаточный уровень родительского контроля, внутрисемейные дисфункции и пробелы в воспитательном воздействии являются ключевыми факторами, оказывающими наиболее значимое влияние на девиантные поведенческие проявления школьников. Кроме того, подробно



рассмотрены такие параметры, как качество педагогического взаимодействия в школьной среде и системные недостатки учебно-воспитательного процесса.

Отдельное внимание уделено анализу экономического неравенства, снижению социального контроля со стороны махалли, воздействию негативных групп сверстников, а также рискам, обусловленным влиянием цифровой среды.

Полученные результаты свидетельствуют о многофакторной природе школьной преступности. Обосновано, что её эффективная профилактика возможна при условии налаживания устойчивого межинституционального взаимодействия «семья – махалля – школа» и внедрения механизмов ранней идентификации социальных факторов риска.

Annotation: In the presented article, a comprehensive analysis is conducted on the processes shaping delinquent behavior among students of general education institutions, taking into account a combination of social, economic, familial, and pedagogical determinants. It is established that the family microsystem, insufficient parental supervision, intrafamilial dysfunctions, and gaps in educational influence constitute the key factors exerting the most significant impact on students' deviant behavioral patterns. In addition, particular attention is given to such parameters as the quality of pedagogical interaction within the school environment and systemic shortcomings of the educational process.

The article also examines economic inequality, the decline of community-based (mahalla) social control, the influence of negative peer groups, and risks associated with the digital environment.

The findings indicate the multifactorial nature of juvenile delinquency among school students. The study substantiates that effective prevention is achievable through the establishment of stable inter-institutional cooperation among the family, the mahalla, and the school, as well as through the implementation of mechanisms for early identification of social risk factors.



Kalit soʻzlar: maktab oʻquvchilari, voyaga yetmagan, oilaviy muhit, tarbiyada nazorat yetishmasligi, taʼlim muhitining taʼsiri, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, tengdoshlar guruhi taʼsiri, raqamli makon xavflari, jinoyatchilikning profilaktikasi, oila–mahalla–maktab hamkorligi.

KIRISH

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida yoshlar tarbiyasi, ularning maʼnaviy-axloqiy yetukligi, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar va yoshlar oʻrtasida huquqbuzarliklarning ortishi, ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarning tur va shakllari tobora murakkablashib borayotgani ushbu muammoga jiddiy yondashishni talab etmoqda.

Maktab oʻquvchilari oʻrtasida huquqbuzarliklarni keltirib chiqarayotgan omillar va sabablarni chuqur oʻrganish, ularga taʼsir qiluvchi ichki va tashqi omillarni tizimli tahlil qilish, mavjud profilaktika ishlarining holatini baholash hamda ularni ilmiy asosda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biridir. Bu esa, huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, xatarli guruh va ijtimoiy xavfli muhitlarni aniqlash, maqsadli ishlarni tashkil etishni talab etadi.

Maktab oʻquvchilari tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar muammosi zamonaviy jamiyatda huquqiy, maʼnaviy va ijtimoiy barqarorlikka tahdid soluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Huquqbuzarliklarning kelib chiqish sabablarini tahlil qilar ekanmiz, birinchi navbatda oiladagi nazoratning sustligi, yoshlar oʻrtasida huquqiy ong va madaniyatning past darajadaligi, taʼlim-tarbiya muassasalarida profilaktik ishlar yetarli darajada yoʻlga qoʻyilmaganligi, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali zoʻravonlik va buzgʻunchi gʻoyalarning ommaviy tarqalayotgani kabi omillar koʻzga tashlanadi.



Shu bilan birga, mamlakatimizda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish bo'yicha davlat siyosati doirasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Har bir umumta'lim maktabida profilaktika inspektorlari, inspektor psixologlar, pedagog-psixologlar va "ota-ona-maktab-mahalla" hamkorlik mexanizmi orqali erta ogohlantirish va xatarli vaziyatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ishlar tizimlashtirilgan.

"Voyaga yetmaganlar" tushunchalarining mohiyati haqida so'z borar ekan, shuni aytish kerakki, 2010-yil 29-sentyabrdagi O'RQ-263-son "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasida "Voyaga yetmagan — o'n sakkiz yoshga to'lmagan shaxs" deb huquqiy ta'rif berilgan¹. Mamlakatimizda voyaga yetmaganlar va yoshlarning hissasi aholining 58,8 foizini tashkil etadi.

Voyaga yetmaganlar — jamiyatning eng nozik va e'tibor talab qiladigan qatlami hisoblanadi. Ular jisman va aqlan hali to'liq rivojlanmagan, dunyoqarashi shakllanib ulgurmagan bo'ladi. Shu sababdan, ushbu yosh toifasi qonunbuzarliklar sodir etish xavfiga moyilroq hisoblanadi. Bu huquqbuzarliklar kattalar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlardan ko'p jihatdan farq qiladi va ularga nisbatan o'ziga xos huquqiy, ijtimoiy va psixologik yondashuv talab etiladi.

Quyida Andijon viloyati bo'yicha yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning asosiy kriminologik jihatlari tahlil qilinadi.

Andijon viloyatida 2024 yilning 12 oyida 276 nafar (271/276) voyaga yetmaganlar tomonidan 241 ta (243/241) jinoyatlar sodir etilgan.

Jinoyatlarning 91,7 foizi oldini olish mumkin bo'lgan, 8,3 foizi aniqlanadigan jinoyatlardir.

Jinoyatlarda ishtirok etgan voyaga yetmaganlar 276 nafarni tashkil etgan (271/276).

¹ 2010-yil 29-sentyabrdagi O'RQ-263-son "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunining 3-moddasi



Mazkur shaxslarning 15,6 foizini akademik litsey va kollej o'quvchilari, 74,6 foizini maktab o'quvchilari, 0,3 foizini Oliy ta'lim muassasasi talabasi, 1,8 foizini o'qimaydigan ishlaydigan, 0,3 foizini mehnatga layoqatsiz, 6,2 foizini norasmiy ishlaydigan, 1,1 foizini rasmiy ishlaydiganlarni tashkil etadi.

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda jinoyatlarda ishtirok etgan bolalarning 54,2 foizi farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi yoki ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar tashkil etadi.²

Bugungi kunda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning huquqiy tarbiyasini mustahkamlash va bu orqali jinoyatchilikni kamaytirishga erishish — har bir soha va tizim uchun dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Chunki voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarliklar nafaqat qonunbuzarlik holati, balki keng ma'noda olib qaralganda, ta'lim-tarbiya, oiladagi muhit, va jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatning aks-sadosi sifatida ham baholanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga qaratilgan e'tibor kuchayib, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim, bandlik, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalalari davlat darajasida yo'lga qo'yilgan. Biroq shu bilan birga, voyaga yetmaganlar o'rtasida ma'muriy va jinoiy huquqbuzarliklarning kuzatilishi bu sohada hali hal etilishi lozim bo'lgan jiddiy muammolar borligini ham ko'rsatmoqda. Ushbu holatni chuqur tahlil qilish, uning sabab va omillarini aniqlash, hududiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar asosida tahliliy yondashuvni ishlab chiqish — muammoning samarali yechimiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.Quyida voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar, ularning sabablari va shart-sharoitlariga xos xususiyatlarga oid bo'lgan xulosa, fikr va mulohazalar keltirilgan:

² IIV statistikasi ma'lumotlari



voyaga yetmaganlar jinoyatlarining 30 foiziga yaqinini katta yoshdagi shaxslarning dalolatchiligi, undashi yoki jalb qilishi ta'sirida sodir etilayotganligi, voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish ko'pincha viktimologik asosga egaligi qayd etilgan ³;

voyaga yetmagan rossiyaliklar umumiy jinoyatlarning 2.5 foizini sodir etganligi, oxirgi 15 yilda jinoyat sodir etganligi uchun sudlangan bolalar 83 foizga kamayganligi, ular asosan mulkka qarshi jinoyatlarni sodir etishi, ular barcha jinoyatlarning salkam 80 foizini, 10 foizini esa shaxs hayoti va sog'lig'iga qarshi jinoyatlar tashkil etishi aniqlangan ⁴;

voyaga yetmaganlarning 11 foizi o'ta og'ir, 51 foizi og'ir, 27 foizi o'rtacha og'ir, 11 foizi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar uchun sudlanganligi, ularning 53 foizi to'liqsiz oilada o'sganligi, 52 foizi guruh tarkibida bo'lganligi, 31 foizi o'qimagan va ishlamaganligi, 17 foizi muqaddam sudlanganligi, 10 foizi mast holatda bo'lganligi, 4 foizi ota-onasi yoki qarindoshlari sudlanganligi takidlangan⁵;

voyaga yetmagan tomonidan birinchi navbatda o'g'rilik, keyin esa badanga turli xil darajada jarohat yetkazish va yo'l-transport hodisalari sodir etilayotgani qayd etilgan ⁶;

axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlar tarkibida voyaga yetmaganlar ulushining ortib borayotgani qayd etilgan ⁷;

³ Azim Sh.O. Voyaga yetmagan shaxsni g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy choralari: yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.-B.11.13

⁴ <https://journal.tinkoff.ru/juvenile-justice-stat> (мурожаат вақти: 4.04.2024)

⁵ <https://www.vedomosti.ru/politics/articles/2023/05/31/978031-statistika-ko-dnyu-zaschiti-detei> (мурожаат вақти: 20.02.2024).

⁶ <https://stv.uz/news/newsamar/21206-uroven-detskoy-prestupnosti-ne-snizhaetsya.html> (мурожаат вақти: 18.02.2024).

⁷ Rasulov A.K. Axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoiyat-huquqiy va kriminologik choralari: takomillashtirish: yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.-B.22



oilaga zo‘ravonlik bilan bo‘g‘liq huquqbuzarliklarning 12.5 foizini voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilish, jabrlanganlarning 31.9 foizini voyaga yatmaganlar tashkil etayotgani aniqlangan ⁸;

voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni kamayib 10 foizga kamayganligi, ularning eng ko‘p tarqalgan turi o‘g‘rilik, ikkinchi o‘rinda bezorilik, firibgarlik va narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog‘liq jinoyatlar ekanligi, aksariyatlari shanba kuni va tunda, bolalar eng kam band bo‘lgan vaqtda sodir etilayotganligi, jinoyat sodir etishning asosiy sababi bu oson pul topish imkoniyatining mavjudligi ko‘rsatilgan ⁹;

voyaga yetmaganlar jinoyatlarining asosiy omillari : birinchidan nosog‘lom oila, yani oildagi muntazam janjal va nizolar, oila a‘zolari o‘rtasidagi begonalashuv va dushmanlik munosabatlari ; ikkinchidan, spirtli ichimlik va giyoxvandlik vositalarini suiste‘mol qilish ; uchinchidan bolaga nisbatan ma‘naviy va ijtimoiy tarbiyaning yo‘qligi takidlangan¹⁰;

Voyaga yetmaganlar o‘sib-ulg‘ayayotgan muhitda, ta‘lim-tarbiya jarayonida, shuningdek ijtimoiy profilaktika va huquqni qo‘llash tizimidagi mazkur salbiy omillarning oqibati sifatida jamiyatda voyaga yetmaganlar qarovsizligi va nazotarsizligi saqlanib qolayotganligi, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi oilalar va voyaga yetmaganlar, g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli bolalar shakllanishi davom etayotganligi oqibatida ular tomonidan huquqbuzarliklar, shu jumladan sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmoqda¹¹

⁸ Murodov A.Sh.Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.-B 20.

⁹<https://www.belta.by/society/view/v-belarusi-pochti-na-10-snizilos-kolichestvo-prestuplenijsredi-nesovershennoletnih-588046-2023> (мурожаат вақти: 18.02.2024).

¹⁰ <https://iz.ru/1547701/ivan-petrov/podrastaiushchee-po-koloniiam-pochemu-deti-sovershaiutpravonarusheniia> (мурожаат вақти: 18.02.2024).

¹¹ Ismailov Isamididdin yuridik fanlar doktori, professor/ Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich yuridik fanlar doktori, professor Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining kriminologik taxlili va o‘ziga xos xususiyatlari nomli maqolasi. Huquqiy tadqiqotlar jurnali №1 2025 yil 93 bet.



Вояга етмаганлар ўсиб-улғаяётган муҳитда, таълим-тарбия жараёнида, шунингдек ижтимоий профилактика ва ҳуқуқни қўллаш тизимидаги мазкур салбий омилларнинг оқибати сифатида жамиятда вояга етмаганлар қаровсизлиги ва назоратсизлиги сақланиб қолаётганлиги, ижтимоий жиҳатдан хавфли аҳволдаги oilалар ва вояга етмаганлар, ғайриижтимоий хулқ-атворли болалар шаклланиши давом этаётганлиги оқибатида улар томонидан ҳуқуқбузарликлар, шу жумладан жиноятлар содир этилишига йўл қўйилмоқда.

Olib borilgan izlanishlar va o'rganishlarga asoslanib hamda yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda maktab o'quvchilari tomonidan sodir etilgan huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon bergan omil va shart-sharoitlar quyidagilar hisoblanadi:

Oilaviy muhit va tarbiyadagi yetishmovchiliklar bolaning jinoyatchilikka moyil bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Ota-onaning yetarlicha e'tibor va mehr ko'rsatmasligi, oiladagi zo'ravonlik va janjallar, tarbiyadagi intizomsizlik hamda mas'uliyatsizlik kabi omillar bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatib, uni jinoiy xatti-harakatlarga undaydi;

Buning isboti tariqasida yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda jinoyatlarda ishtirok etgan bolalarning 54,2 foizi farzandi tarbiyasiga e'tiborsiz, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvoldagi yoki ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarda tarbiyalanayotgan bolalar tashkil etadi.

Hozirgi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlar voyaga yetmaganlar hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular ma'lumot manbai, muloqot vositasi va ko'ngilochar platforma sifatida xizmat qilsa-da, ayni paytda turli xavf va tahdidlarni ham o'zida mujassam etgan. Bu holat voyaga yetmaganlar tomonidan **onlayn firibgarlik (fishing, akkauntlarni buzish, QR-kod orqali pul o'g'irlash), sug'urta, onlayn savdo yoki kriptoalyuta bilan bog'liq firibgarlik, zo'ravonlik kontentlarning ko'payishi (videolar, o'yinlar, memlar), ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarni**



qo‘rqitish, tahdid qilish, shantaj bilan shug‘ullanish (kiberbulling), radikal guruhlar ta’siriga tushib qolishlari, feyk akkauntlar orqali moddiy manfaat olishga urinish, shaxsiy ma’lumotlarni (pasport, bank ma’lumotlari, fotosuratlar) o‘g‘irlash va ulardan foydalanish, TikTok, Telegram, Instagram orqali zo‘ravonlik, qonunga zid harakatlar va “challenge”lar targ‘ib qilinishi, ko‘p hollarda voyaga yetmaganlar “layk” yoki “obunachi” orttirish maqsadida jamoat tartibini buzishga harakat qilishlari huquqbuzarliklar soni ortishiga sabab bo‘lmoqda;

Maktab o‘quvchilari hayotidagi eng noyob va murakkab davr – o‘smirlik (o‘sish) bosqichi bo‘lib, bu paytda shaxsda ichki psixologik beqarorlik, ehtiyojlar muvozanatsizligi va mustaqil qaror qabul qilishga bo‘lgan urinishlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Mana shu bosqichdagi emotsional beqarorlik va impulsivlik (hissiyotlarga berilish, asabiylik, agressiya, qattiq g‘azab), jamiyatda o‘z o‘rnini topishga bo‘lgan ehtiyoj, “men ham borman”, “mendan qo‘rqishsin”, “men boshqalardan farqliman” kabi ichki chaqiriqlar ularni jinoiy guruhlariga qo‘shilib qolishiga, ruhiy muvozanatning buzilishi, depressiya, shizofreniya, giperaktivlik kabi holatlar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimining yo‘qligi kabi holatlar huquqbuzarliklarni yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda;

Maktab o‘quvchilari jinoyatchiligi nafaqat shaxsiy omillar, balki keng qamrovli ijtimoiy muhit ta’sirida ham yuzaga keladi. Masalan: ota-onaning yetarli tarbiya va nazoratni amalga oshirmasligi, oiladagi zo‘ravonlik, janjal va ma’naviy yetishmovchilik, ajrim, kam ta’minlanganlik yoki ijtimoiy nosog‘lom oilalar, ota-onalarning o‘zi jinoiy faoliyatda ishtirok etishi, kriminogen muhit (giyohvandlar, ichkilikbozlar, jinoyatchilar ko‘p yashaydigan hududda o‘sish), jamoatchilikning befarqligi, profilaktika ishlarining yo‘qligi kabi holatlar maktab o‘quvchilari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda;

Iqtisodiy muammolar maktab o‘quvchilari jinoyatchiligining eng asosiy manbaalaridan biridir. Masalan: oilalarda moddiy ta’minot pastligi natijasida bolalar



pul topish uchun har qanday yo‘lga hatto jinoyatga ham qo‘l urishi (telefon, kiyim-kechak yoki moddiy ehtiyojlarini qondirolmagan o‘smir o‘g‘irlik yoki talonchilik sodir etishi mumkin), ishsizlik ularni boshqa “oson” daromad olish yo‘llarini izlashga majbur qiladishi maktab o‘quvchilari tomonidan jinoyat sodir etilishiga sabab bo‘lmoqda;

Sport mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanuvchi voyaga yetmaganlar guruh tarkibida bezorilik jinoyatlarini sodir qilish holatlarining oshib borayotganligi, ular o‘rtasida jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan choralar samarali yo‘lga qo‘yilmaganligini ko‘rsatmoqda;

Maktab o‘quvchilari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarni oldini olishga mas’ul har bir mutasaddi tashkilotlarda maktab o‘quvchilari haqida ma’lumotlar bo‘lsada, ular o‘rtasida ma’lumot almashish mexanizmi zaifligi va elektron tizim orqali real vaqtda ma’lumotlar bilan tanishish, tahlil qilish va birgalikda chora ko‘rish imkoniyatining mavjud emasligi;

Ichki ishlar organlari, maktab psixologlari va profilaktika inspektorlarida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil voyaga yetmaganlarni aniqlashga qaratilgan milliy psixodiagnostik mezonlar va metodikalarning mavjud emasligi ularni bir xil yondashuv asosida ish olib borishlariga ta’sir etmoqda;

Mahallada oldi olinishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etilmaganlik holatlari, kelgusida **boshqa yoki takroran jinoyatlarning yuzaga kelish xavfini kuchaytirmoqda**, bunday shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha manzilli ishlar yetarlicha darajada olib borilmaganligi takroran va boshqa jinoyatlarning yuzaga kelish xavfini tug‘dirmoqda.

Huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim qismi bo‘lgan mahallada oilaviy va qo‘shnichilik nizolarini tinch yo‘l bilan hal qilish maqsadida **huquqiy maslahat berish, psixologik yordam ko‘rsatish, tushunmovchiliklarni bartaraf etish**



orqali aholini xabardor qilish va ruhiy barqarorlikni ta'minlash tizimining mavjud emasligi;

Mahallalarda huquqbuzarliklarning sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etishni baholash mezoni sifatida jinoyatchilik statistikasi qo'llanilib, huquqbuzarliklar, jumladan jinoyatlar sodir etilishiga imkon berayotgan sabab va shart-sharoitlarning mavjudligi bilan baholanmasligiga olib kelgan. Natijada, jinoyatchilikni jilovlash bo'yicha davlat hokimiyati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va jamoatchilikning barcha harakatlari jinoyatning oqibati bilan kurashishga mujassamlashishiga olib kelgan va qo'llanilayotgan barcha sa'y-harakatlarning samaradorlik darajasini pasayishiga sabab bo'lgan.

Maktab o'quvchilari o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha **taklif va tavsiyalar:**

Oilaviy muhit va tarbiyaviy yetishmovchilik sababli yoshlar va voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarni oldini olish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- ota-onalar uchun bolalar bilan munosabatlarda to'g'ri yondashuvni shakllantirish maqsadida psixologik va pedagogik bilimlarni oshirishga qaratilgan o'quv kurslari va seminarlar tashkil etish;

- ota-onalarga bola tarbiyasida psixologik yondashuv, zo'ravonliksiz munosabat, ijobiy muloqot, mas'uliyat va intizomni shakllantirish bo'yicha bilim berish maqsadida har bir mahalla, maktab va ta'lim muassasasida "Ota-onalar maktabi"ni tashkil etish;

- oilaviy muammosi, mehr va e'tibor yetishmovchiligi, zo'ravonlikka guvoh bo'lgan yoshlarni erta aniqlash va individual yordam ko'rsatish maqsadida mahalla, maktab va psixologlar hamkorligida "Xavf ostidagi bolalar reestri"ni yaratish;

- jamoatchilik ongini shakllantirish, ota-onalarda ma'suliyat hissini kuchaytirish maqsadida televidenie, radio, ijtimoiy tarmoqlarda "Oila — jinoyatning



oldini olishda asosiy tayanch” shiori ostida maxsus videoroliklar, intervyular tayyorlash;

- jinoyat sodir etgan yoshlarni jamiyatdan uzoqlashtirmasdan, ularni qayta ijtimoiy hayotga tayyorlash uchun reabilitatsiya (qayta ijtimoiylashuv) dasturlari va repetitorlik asosida ta’limga qayta jalb etish.

- qiyin vaziyatdagi oilalarga bepul psixologik, huquqiy va ijtimoiy yordam ko’rsatish maqsadida “Oila va yoshlar maslahat markazi”ni tashkil etish;

- maktab psixologlari va pedagoglar orqali yoshlarga muammolarini tushunish va yechishda yordam berish, psixologik treninglar, stressni boshqarish va konfliktni hal etish usullarini o’rgatish;

- maktab va mahalla darajasida sport, madaniy va ijtimoiy loyihalar orqali yoshlarni salbiy ta’sirlardan himoya qilish;

- televidenie, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali jinoyatchilikka qarshi kurash, oilaviy qadriyatlarni asrash, tarbiya ahamiyati haqida ma’lumot berish;

- maktab o’quvchilari uchun moliyaviy yordam, ta’lim va kasbga yo’naltirish kurslari, psixologik yordamni qamrab oluvchi loyihalarni amalga oshirish;

- jinoyatchilikka moyil maktab o’quvchilari aniqlash va rivojlanishini oldini olish maqsadida maxsus monitoring va profilaktika dasturlari tashkil etish, maktab o’quvchilari o’rtasida tezkor psixologik-pedagogik yordam ko’rsatish.

Xulosa

Maktab o’quvchilari tomonidan sodir qilingan jinoyatlarning sabablarini aniqlah va ularni bartaraf etish yuzasidan muhim chora tadbirlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Biz ushbu maqolada yuqoridagi fikrlarga alohida to’xtalib o’tishga imkon qadar harakat qildik. Yana shuni ham ayta olamizki maktab o’quvchilarining jinoyatchiligini bartaraf qilishda oila-mahalla-maktab



tamoyili asosida hech bir inson befarq bo‘lmasligi kerakligini alohida eslatib o‘tgan bo‘lar edik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 2010-yil 29-sentyabrdagi O‘RQ-263-son “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasi
2. Azim Sh.O. Voyaga yetmagan shaxsni g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlarga jalb qilishga qarshi kurashning jinoiy-huquqiy choralari: yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2020.-B.11.13
3. Ismailov Isamiddin yuridik fanlar doktori, professor/ Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich yuridik fanlar doktori, professor Voyaga yetmaganlar jinoyatlarining kriminologik taxlili va o‘ziga xos xususiyatlari nomli maqolasi. Huquqiy tadqiqotlar jurnali №1 2025 yil 93 bet.
4. Rasulov A.K. Axborot texnologiyalari va xavfsizligi sohasidagi jinoyatlarga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik choralarini takomillashtirish: yuridik fanlar doktori(DSc) dissertatsiyasi avtorefarati. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.-B.22
5. Murodov A.Sh. Ichki ishlar organlarining oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish: yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtorefarati. O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2019.-B 20.
6. IIV statistikasi ma’lumotlari.
7. <https://www.belta.by/society/view/v-belarusi-pochti-na-10-snizilos-kolichestvo-prestuplenijsredi-nesovershennoletnih> - 588046-2023 (murojaat vaqti: 18.02.2024).
8. <https://iz.ru/1547701/ivan-petrov/podrastaiushchee-po-kolonii-am-pochemu-deti-sovershaiut-pravonarusheniia> (murojaat vaqti: 18.02.2024).



9. <https://journal.tinkoff.ru/juvenile-justice-stat> (murojaat vaqti: 4.04.2024)
10. <https://www.vedomosti.ru/politics/articles/2023/05/31/978031-statistika-kodnyu-zaschiti-detei> (murojaat vaqti: 20.02.2024).
11. <https://stv.uz/news/newsamar/21206-uroven-detskoy-prestupnosti-nesnizhaetsya.html> (murojaat vaqti: 18.02.2024).